“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston Respublikasi
Turizm qo‘mitasi raisi
_____ A. Aqqulov
2026 yil «___» _____

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHASI KONSEPSIYASI

I. Loyihaning tavsifi

Loyihaning nomi:	Davlat-xususiy sheriklik asosida turizm, mehmondo‘stlik va umumiy ovqatlanish sohalarida raqamlashtirilgan va sun’iy intellekt moduliga ega Malakalarni baholash markazini tashkil etish va boshqarish
Tarmoq nomi:	Turizm, raqamli xizmatlar
Loyiha turi:	Raqamlashtirilgan va sun’iy intellekt moduliga ega Malakalarni baholash markazini (“TurMalaka” platformasi) tashkil etish va boshqarish (DBFO modeli)
Xususiy sherik tomonidan bajariladigan ish hajmi	2 mlrd so‘m investitsiya hisobiga “TurMalaka” onlayn platformasi, Face-ID va AI-proktoring modullari, server infratuzilmasi, Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar)da amaliy imtihon xonalari video jihozlarini yaratish hamda markazni 10 yil davomida boshqarish
Davlat sherigi:	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi
Loyiha joylashgan joyi:	Toshkent shahri, Mirobod tumani (boshqaruv ofisi va platforma); amaliy sinovlar — Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar); serverlar — O‘zbekiston hududida

II. Dastlabki tanlov natijalari

DXSh loyihasining dastlabki tanlovi natijalari haqidagi batafsil ma’lumot va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting.
O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-son Qonuni (17-modda — xususiy tashabbus) va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son qaroriga asosan turizm, mehmondo‘stlik va umumiy ovqatlanish sohalarida raqamlashtirilgan va sun’iy intellekt moduliga ega Malakalarni baholash markazini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha loyiha ishlab chiqildi; loyiha baholash hujjati tayyorlangan. Loyihaning asosiy maqsadi — turizm sohasi kadrlarining kasbiy malakasini inson omilisiz, shaffof va xolis baholash, QR-kodli elektron sertifikatlar va Yagona davlat elektron reyestrini shakllantirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish. Xususiy tashabbuskor “QUALIFEX ASSESSMENT” MChJ tomonidan “TurMalaka” platformasining 5 ta rol paneli (talabgor, Turizm qo‘mitasi, Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar), ekspert, xususiy hamkor), nazariy test mexanizmi, amaliy videoni anonim baholash, QR-sertifikat va uch tilli interfeys ishlab chiqilgan. Tushumlar

10/90 nisbatda taqsimlanadi: yalpi tushumning 10 foizi Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Loyiha aniq ijtimoiy (kadrlar malakasini rasmiy tan olish, korrupsiyaning oldini olish), iqtisodiy (byudjet mablag‘larisiz xizmat yaratish, Jamg‘armaga tushumlar) va infratuzilmaviy (raqamli baholash tizimi, Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar) bilan integratsiya) vazifalarni hal etishga qaratilgan.

III. DXSh loyihasining moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qo‘shimcha ma’lumotlar	
1.	Loyihani baholash hujjatlari tayyorlanganmi? Ha ☒ Yo‘q ☐ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting.* *Loyiha baholash hujjati ilova qilinadi.*
2.	Loyihaning quyidagilardan biriga yoki bir nechtasiga kiritilganligini ko‘rsating: Investitsiya dasturi ☐ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni yoki qarori ☐ Vazirlar Mahkamasi qarori ☒ Boshqa ☐ Batafsil ma’lumotlar hamda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi “Malaka sertifikatlarini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi 635-son qarori.
3.	Loyiha iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumat tomonidan belgilangan maqsadlar yoki strategiyalarga erishishga hissa qo‘shadimi? Ha ☐ Yo‘q ☒ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, ma’lumot bering.*
4.	Loyiha Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish sohasidagi qaysi maqsadlariga qaratilgan? Mazkur loyiha BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan quyidagilarga qaratilgan: 1. 4-maqsad — sifatli ta’lim: malakani tan olish va malaka oshirishga yo‘naltirish (4.4-vazifa). 2. 8-maqsad — munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish: munosib ish o‘rinlari, turizmni rivojlantirish (8.5, 8.9-vazifalar). 3. 9-maqsad — innovatsiya va infratuzilma: sun’iy intellekt va biometrik texnologiyalarni joriy etish. 4. 16-maqsad — samarali va shaffof institutlar: baholashda inson omili va korrupsiyani bartaraf etish (16.5, 16.6-vazifalar).
5.	Ushbu loyiha davlat xaridlari jarayoni doirasida amalga oshirish uchun budjet tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilganmi? Ha ☐ Yo‘q ☒ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, ma’lumot bering.*
6.	Xususiy sherikning loyihani amalga oshirish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olishga ruxsat beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish zarurati bormi? Ha ☐ Yo‘q ☒ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, ma’lumot bering.*

	Tariflar DXSh bitimiga (2-ilova) muvofiq davlat sherigi tomonidan tasdiqlanadi (Nizomning 78-bandi).
7.	Xususiy sherikning loyiha doirasida ko‘rsatadigan yakuniy xizmatlarini tasvirlab bering: - onlayn ariza, to‘lov va biometrik (Face-ID) identifikatsiya; - AI-proktoring nazorati ostida nazariy test (tasodifiy savollar, avtomatik ball); - Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar) poligonida videoyozuv ostida amaliy imtihon va ekspertlarning anonim baholashi; - QR-kodli elektron sertifikat va Yagona davlat elektron reyestriga kiritish; - sertifikatlarni login talab qilinmasdan ommaviy tekshirish; Turizm qo‘mitasi uchun kasb yo‘nalishlari, tariflar va savollarni boshqarish paneli; - ish beruvchilar uchun korporativ sertifikatlash; imtihondan o‘tmaganlarni malaka oshirish kurslariga yo‘naltirish. Baholash yo‘nalishlari (dastlabki bosqich): restoran ofitsianti (550 000 so‘m), barmen (600 000 so‘m), gid-ekskursovod (650 000 so‘m), mehmonxona administratori (850 000 so‘m), sayyohlik agentligi menejeri (900 000 so‘m), oshpaz (shef-povar) (1 250 000 so‘m).
8.	A) Loyihaning qiymati **2 000,0 mln so‘m** (167 147 AQSh dollari) | B) Loyiha davridagi ekspluatatsiya xarajatlari **3 772,6 mln so‘m** (315 291 AQSh dollari) | V) Umumiy xarajatlar **5 772,6 mln so‘m** (482 438 AQSh dollari) *2026.10.22 holatida Markaziy bank kursi 1 AQSh dollari — 11 965,51 so‘m* G) DXSh bitimining amal qilish muddati: **10 yil** | D) Loyihani amalga oshirish muddati: **120 kun (4 oy)** Aniq ma’lumot bo‘lmasa, oraliq muddatni belgilang (bitim muddati, yil): 3-10 ☒ 11-20 ☐ 21-30 ☐ 30 ☐ Loyihani amalga oshirish muddati (oy): <10 ☒ 10-30 ☐ >30 ☐
9.	a) Loyihaning daromad manbasini ko‘rsating: Foydalanganlik uchun to‘lov ☒ Erkin foydalanilishi uchun to‘lov ☐ b) Foydalanganlik uchun to‘lov: - malakani baholash va sertifikatlash xizmati uchun talabgorlar, ish beruvchilar yoki Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi tomonidan to‘lanadigan tariflar (BHMning 0,5–4,0 barobari); - barqaror faoliyat davrida yiliga taxminan 10 000 nafar talabgor, yillik tushum 2026-yil narxlarida 7 700,0 mln so‘m. Erkin foydalanish uchun to‘lov: ko‘zda tutilmagan. Daromadlar taqsimotini ko‘rsating: Davlat mulkidan foydalanganlik uchun to‘lov ☐ Qo‘shimcha foyda taqsimoti ☐ Boshqa: yalpi tushumning 10 foizi (soliqlardan oldin) har oy Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga o‘tkaziladi — 10 yilda jami 8 403,8 mln so‘m; 90 foizi xususiy sherik ixtiyorida qoladi. v) DXSh loyihasining tashabbuskorini belgilang: Davlat tashabbuskori: ☐ Xususiy tashabbuskor: ☒

g) DXSh to‘g‘risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g‘olibidan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar ishtirokchisidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda bir martalik to‘lov: Nizomning 67-bandi va 5-ilovasida belgilangan miqdorda to‘lanadi.

10. Xususiy va davlat sherigi o‘rtasidagi xatarlarni taqsimlashda taklif qilingan o‘zgarishlarni belgilang

Xavf yoki xatarlar turlari	Davlat sherigi	Umumiy	Xususiy sherik	Xatar taqsimoti asosi	Izoh
Loyiha hujjatini ishlab chiqish bilan bog‘liq xatarlar			•		
Dizayn va texnologiyalarning eskirish xavfi			•		Jihozlar 6-yilda yangilanadi
Yashirin nuqson xavfi			•		Dasturiy ta’minot nuqsonlari
Yer ajratish va ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar					Yer ajratish talab etilmaydi
Moliyaviy xatar			•		
Qurilish bilan bog‘liq xatar (aniq bo‘lmagan)					Qurilish ishlari nazarda tutilmagan
Qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan xatar (aniq bo‘lgan)					Qurilish ishlari nazarda tutilmagan
Ishga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar			•		120 kun
DXSh to‘g‘risidagi bitim tuzilganidan keyin loyihaga kiritiladigan o‘zgarishlar (davlat sherigi tarafidan)	•				
DXSh to‘g‘risidagi bitim tuzilganidan keyin loyihaga kiritiladigan o‘zgarishlar (xususiy sherik tarafidan)			•		
Soliq bilan bog‘liq xatarlar			•		
Tariflarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan xatarlar		•			Tariflar BHMga bog‘langan
Loyihaning sug‘urtasiga oid xatarlar			•		
Qonunchilikdagi o‘zgarishlarning loyihaga salbiy ta’siri xatarlari	•				
Litsenziya guvohnomalar berilishi kechikishi		•			
Xususiy sherikka kelishilgan to‘lovlarning kechiktirilishi					Davlatdan xususiy sherikka to‘lovlar mavjud emas
Davlat sherigiga kelishilgan to‘lovlarning kechiktirilishi (tegishli joylarda)			•		10% ulush, penya 0,1%/kun
Siyosiy beqarorlik xatarlari	•				
Ta’mirlash va rekonstruksiyaga oid xatarlar			•		Server va video jihozlar
Mulkni rekvizitsiya qilish	•				
Operatsion xatarlar			•		Uptime ≥ 99,5%
Ekologik/ijtimoiy xatar (ekspluatatsiya bilan bog‘liq)			•		
Operativ faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar			•		
Talab bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar			•		Asosiy xatar
Samaradorlik ko‘rsatkichlarini bajarish bilan bog‘liq xatarlar			•		

Kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi			•		Serverlar O'zbekiston hududida
Sertifikatlarni tan olish va reyestrga kiritish	•				

11. Agar xususiy sherik ko'rsatilgan bo'lsa, quyidagi ma'lumotlarni taqdim eting.

a) Xususiy tashabbuskor nomi: "QUALIFEX ASSESSMENT" MChJ (STIR 313221342)

b) Kompaniya ro'yxatdan o'tgan davlat nomi: O'zbekiston Respublikasi

v) Aksiyadorlar va kompaniya egasi: _____

g) Bog'lanish uchun ma'lumot: Toshkent sh., Mirobod tumani; +998 (93) 290-00-03; info@qualifex.uz; direktor — Xusanov Sh.M.

d) Biznesning qisqacha mazmuni: axborot texnologiyalari, raqamli platformalar ishlab chiqish, kasbiy malakani baholash xizmatlari

e) Xuddi shu sohada shunga o'xshash loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tajriba: "TurMalaka" platformasi ishlab chiqilgan — 5 ta rol paneli, nazariy test, amaliy video va ekspert baholashi, QR-sertifikat, 3 tilli interfeys (76 ta avtomatik test muvaffaqiyatli o'tgan)

yo) So'nggi uch moliyaviy yil uchun jami aktivlar, jami majburiyatlar va sof foyda: _____

z) Kompaniyani qayta tashkil etish, tugatish va (yoki) bankrotlik bosqichida emasligini tasdiqlovchi hujjatlar: _____

Xususiy tashabbuskorning malakasini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatli dalillarni, shu jumladan, kompaniya nizomi, yillik hisobotlarni va oxirgi uch yil uchun audit qilingan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar.

12. Har bir bosqich uchun taxminiy / rejalashtirilgan sanani ko'rsating:

		Sana			Sana
a)	DXSh loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash	2026 yil 4-chorak	d)	Muzokaralar va DXSh to'g'risidagi bitimni imzolash	2027 yil 1-chorak
b)	Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish (masalan: tender hujjatlari)	2026 yil 4-chorak	e)	Maxsus loyiha kompaniyasini (SPV) tashkil etish	–
v)	Dastlabki malakani aniqlash (RFQ)	2026 yil 4-chorak – 2027 yil 1-chorak (45 kunlik e'lon)	yo)	Moliyaviy yakunlash	Bitim tuzilgandan so'ng
g)	G'olibni saralash (RFP)	2027 yil 1-chorak (boshqa talabgor bo'lsa)		Platformani to'liq ishga tushirish	Bitimdan so'ng 120 kun

13. Joriy holatda aholidan va/yoki davlat budjetidan mazkur xizmatga ajratiladigan yalpi mablag':

Joriy holatda turizm, mehmondo'stlik va umumiy ovqatlanish kadrlari malakasini raqamli baholash bo'yicha yagona tizim mavjud emas; davlat budjetidan bu xizmatga alohida mablag' ajratilmaydi.

14. Ushbu loyiha davlat tarafidan amalga oshirilganda, budjetdan ajratilishi kutilgan taxminiy mablag' (bunga kapital xarajatlari va boshqa boshqaruv xarajatlari kiradi):

Platforma, Face-ID va AI-proktoring modullari, serverlar va video jihozlar uchun taxminan 2 000,0 mln so'm kapital xarajatlar hamda taxminan 2 533,6 mln so'm boshqaruv xarajatlari (IT xodimlari, xosting, litsenziyalar, ofis), shuningdek, 6-yilda jihozlarni yangilash xarajatlari talab etiladi.

15. Loyihani davlat tomonidan emas, balki DXSh mexanizmi orqali amalga oshirishning afzalliklarini asoslab bering:

DXSh mexanizmi raqamli baholash tizimini yaratish uchun 2 mlrd so'm xususiy investitsiyani jalb qiladi va davlat budjetidan kapital hamda joriy xarajatlarni talab qilmaydi. IT-ishlanma, kiberxavfsizlik, texnologiyalarning eskirishi va talab xatarlari xususiy sherikka o'tadi. Davlat sherigi standartlar, metodologik nazorat va sertifikatlarni tan olish vakolatini saqlab qoladi,

YMN6735

	tushumlarni real vaqtda kuzatadi va yalpi tushumning 10 foizini Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga oladi (10 yilda 8 403,8 mln so‘m). Xususiy sherikning IT sohasidagi tajribasi va tezkorligi tizimni 120 kunda ishga tushirish imkonini beradi.
16.	Tashabbus qilingan loyiha iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni / muammolarni hal etishga qaratilganmi? Ha ☒ Yo‘q ☐ **Iqtisodiy samara:** byudjet mablag‘larisiz xizmat yaratiladi; Jamg‘armaga 8 403,8 mln so‘m va byudjetga soliqlar tushadi; 15 ta yuqori malakali ish o‘rni yaratiladi, soha ekspertlari jalb etiladi. **Ijtimoiy samara:** 10 yilda 84 000 nafar mutaxassis malakasi xolis baholanadi va rasmiy tan olinadi; korrupsiya va inson omili bartaraf etiladi. **Infratuzilmaviy samara:** respublika bo‘ylab yagona raqamli baholash platformasi, Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar) video jihozlangan amaliy imtihon xonalari, Yagona davlat elektron reyestri.
17.	Taklif etilayotgan loyihalar bo‘yicha faoliyat davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari tomonidan amalga oshiriladimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, fikringizni batafsil asoslab bering:* Malaka sertifikatlarini berish davlat xizmati hisoblanadi (Vazirlar Mahkamasining 635-son qarori); turizm sohasidagi kasbiy standartlar va gidlarga malaka sertifikatlari Turizm qo‘mitasi vakolatida.
18.	Taklif etilayotgan loyiha bo‘yicha taqdim etiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati va (yoki) qamrab olish darajasining amaldagi ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori va (yoki) innovatsion yondashuvni o‘z ichiga oladimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ Innovatsion elementlar: Face-ID (aniqlik ≥ 99,0%, Liveness Detection), AI-proktoring (nigoh, ekran, begona ovoz va shaxslarni aniqlash), ekspertlarning anonim baholashi, QR-kodli kriptografik sertifikat, tushumlarni 10/90 avtomatik taqsimlovchi biling. Qamrov: 13 ta hudud, onlayn ariza va uch tilli interfeys.
19.	DXSh obyektiga bo‘lgan mulk huquqi davlat sherigiga tegishlimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, fikringizni batafsil asoslab bering:* Yagona davlat elektron reyestri, sinov bayonnomalari va barcha arxiv ma’lumotlari davlat sherigiga tegishli bo‘lib, bitim muddati tugaganda yoki bekor qilinganda to‘liq elektron shaklda topshiriladi. Dasturiy kodlar va AI modullari xususiy sherikning intellektual mulki bo‘lib qoladi .
20.	Loyiha uchun xususiy sektor tomonidan sarmoya va/yoki tajriba jalb qilinyaptimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ 2 mlrd so‘mlik boshlang‘ich investitsiya va 6-yildagi jihozlarni yangilash xarajatlari to‘liq xususiy sherik tomonidan moliyalashtiriladi; xususiy sherikning raqamli platformalar va sun’iy intellekt sohasidagi tajribasi jalb etiladi.
21.	Taklif etilayotgan loyiha xorijiy yoki mahalliy tajribaga asoslanadimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, izohlang.* Xalqaro amaliyotda malakani mustaqil baholash markazlarida onlayn proktoring, biometrik identifikatsiya va raqamli sertifikatlar standart yechim hisoblanadi; O‘zbekistonda MyID, OneID va yagona davlat reyestrlari loyiha uchun texnologik asos yaratadi.

22.	Tashabbus ko‘rsatilgan loyiha doirasida ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish nazarda tutilganmi? Ha ☒ Yo‘q ☐ KPI asosida boshqaruv (arizani 3 ish kunida ko‘rib chiqish, inson omili 0%, uptime ≥ 99,5%), davlat sherigi uchun real vaqtdagi moliyaviy monitoring kabineti, oylik solishtirma dalolatnoma va choraklik hisobotlar.
23.	Tashabbus ko‘rsatilgan loyiha tomonlar uchun maqbul bo‘lgan mutanosib foydani ta’minlab bera oladimi? Ha ☒ Yo‘q ☐ Xususiy sherik uchun: IRR 36,5% (diskont stavkasi 14%), NPV 5 060,8 mln so‘m, PI 3,53, oddiy qoplash muddati 3,8 yil. Davlat uchun: budjet xarajatlarisiz tizim yaratiladi, Jamg‘armaga 8 403,8 mln so‘m tushadi, reyestr va ma’lumotlar davlatga topshiriladi. Zararsizlik nuqtasi — yiliga taxminan 5 460 nafar talabgor.
24.	Loyihani amalga oshirish uchun yer uchastkasiga zarurat bormi? Ha ☐ Yo‘q ☒ Yer uchastkasi ajratish talab etilmaydi; amaliy sinovlar mavjud Kasbiy ko‘nikmalar markazlari, sohadagi ta’lim tashkilotlari va amaliyot bazalari (restoranlar, mehmonxonalar), Bilim va malakalarni baholash agentligi binolarida shartnoma asosida o‘tkaziladi.
25.	a) Loyihani amalga oshirish natijasida ijtimoiy muammolar kelib chiqish ehtimoli mavjudmi? Ha ☐ Yo‘q ☒ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, izohlang.* b) Loyihani amalga oshirish natijasida ekologik muammolar vujudga kelish ehtimoli mavjudmi? Ha ☐ Yo‘q ☒ *Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, izohlang.*
26.	Davlat sherigi tomonidan (DXSh loyihasi doirasidan tashqarida) amalga oshirilishi zarur bo‘lgan qo‘shimcha ish hajmlarini ko‘rsating: Suv ta’minoti obyektlarini qurish ☐ Gaz ta’minoti obyektlarini qurish ☐ Elektr ta’minoti qurilmalariga ulanish ☐ Kirish yo‘llari ☐ Transport bog‘lanishi ☐ Boshqa ☒ Davlat sherigi tomonidan: kasbiy standartlar, kasblar klassifikatori va baholash mezonlarini tasdiqlash; Yagona davlat elektron reyestrini yuritish; Kasbiy ko‘nikmalar markazlari bo‘yicha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan muvofiqlashtirish. Infratuzilma qurilishi talab etilmaydi.
27.	Manfaatdor tomonlarni sanab o‘ting: Xususiy sherik — “QUALIFEX ASSESSMENT” MChJ; Davlat sherigi — O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi; Bilim va malakalarni baholash agentligi; Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Kasbiy ko‘nikmalar markazlari); mehmonxonalar, restoranlar, turoperatorlar va boshqa ish beruvchilar; turizm sohasi xodimlari, gidlar, kasb-hunar ta’limi bitiruvchilari.
28.	Davlat sherigi tomonidan loyihani amalga oshirish uchun mas’ul etib tayinlangan shaxs haqidagi ma’lumotlarni taqdim eting.

Mas'ul etib tayinlangan shaxs	_____
F.I.Sh.	_____
Lavozimi:	_____
Tel:	_____
Elektron pochta manzili:	_____

"Kiritildi"

"QUALIFEX ASSESSMENT" MChJ

Sh.S.Xusanov

m.o'.

"Kelishildi"

Turizm qo'mitasi
mas'ul xodimi

m.o'.

YMN6735